

O‘ZBEK ASARLARIDA NOVERBAL VOSITALARNING QO‘LLANILISHI.**Sultonmurodova Nilufar Baxtiyorovna****Tayanch so‘zlar:** *noverbal muloqot, noverbal muloqot vositalari, badiiy asarlar*

Kirish: Ushbu maqolada o‘zbek asarlarida qo‘llanilgan noverbal muloqot vositalari misol tariqasida keltirilgan va ularning ma‘no-mohiyati ochib berilgan. Buning uchun, Said Ahmadning “Ufq” romani, Abdulla Qahhorning “Sarob” romani, Pirmqul Qodirovning “Uch ildiz” asarlaridan parchalar keltirilgan.

Noverbal aloqa vositalari o‘zbek tili adabiyotida shunchalik ko‘p qo‘llaniladi -ki, ularni badiiy asar o‘qiyotib har qadamda uchratish mumkin. Quyida ba‘zi asarlardan misolida noverbal aloqa vositalarining qo‘llanilishini tahlil qilib chiqamiz.

I. Said Ahmadning “Ufq” romani misolida noverbal aloqa vositalari tahlili.

a) Chol handalakni olib uzoq iskadi. Ko‘zlari qisilib, ancha paytgacha jim qoldi. Keyin xo‘rsingandek dedi:

- Xudo shu kunlarga ham yetkazdi. Pishiqlikka yetmay o‘lib ketaman, deb o‘ylagan edim. O‘zingga shukur!

Asarda qo‘llanilgan bu ikkala noverbal aloqa vositalari bir butunlikda “o‘ylanib qolish”, “o‘yga cho‘mish” ma‘nolarida qo‘llanilinganini matn davomida bilib olishimiz mumkin.

b) – Jannat, Jannat, senga nima bo‘ldi?

Jannat ingradi. Ikrom ariqdan hovuchida suv olib betiga sochdi. Jannat ko‘zini ochdi.

- Nima bo‘ldi?

Jannat ingrangandek javob qildi:

- Tentakkinamga tansiqroq bir nima pishirib beray desam o‘tin qolmapti.

Ikromning ikki qoshi oralig‘iga tugunchak tushdi.

Asarda qo‘llanilgan bu vosita, ya‘ni inson qoshining yig‘irilishi uning g‘azabini, jahlini anglatib kelishi aniq. Asar qahramoni Ikromning ham bo‘lgan ishlardan jahli chiqqanini aynan shu misol orqali ko‘rishimiz mumkin.

c) – Tur! Bu qanaqa ahmoqlik?

Bola umrida bunaqa gap eshitmagan shekilli, qo‘rqib ketdi. Ikrom yana qichqirdi:

- Odamlar ishini qilib tushlikka chiqdi. Sen hali ham bolishdan boshingni uzmabsan. Ahmoq!

Qichqirish ham noverbal aloqa turlaridan biri bo‘lib, u ovoz orqali ma‘lum bir ma‘noni kasb etishi mumkin: hayajon, qo‘rquv va jahlni. Berilgan matndan shunisi aniq -ki, Ikromning o‘g‘lining haliyam uhlab yotishidan jahli chiqadi va qichqiradi.

d) Ikrom bolaning yuvuqsiz betidan ko'zini olib ayvonga chiqdi. Xotini ning boshiga kelib tiz cho'kdi:

- Handalak olib keldim, so'yib beraymi?

Xotin bosh chayqadi.

- bolamga so'yib bering.

Odatda bosh chayqash ishorasi inkor ma'noni, ya'ni, "yo'q" deyish maqsadida qo'llaniladi va bu misolda ham aynan shu ma'noda qo'llanilingan.

e) Jannat uning boshini silaydi.

- Tursunboy, bolaginam, tursang-chi, nonushtang sovib qoldi. Dadang kutib qoldi.

O'zbek tilida bosh silash orqali ikkinchi tomonga nisbatan mehribonchilik, muhabbat va erkalash ma'nolari anglashilinadi. Shuningdek bu misolda ham ona o'z bolasining boshini silash orqali o'z mehr-muhabbatini ko'rsatmoqda.

f) Tursunboy odeyalni boshiga tortib burkanib oldi.

- Ha, umringdan Baraka topkur-a, tursang-ku bo'lardi-ya. Mening shu ahvolda borib kelishim osonmi. Ha bolang ko'paygur-a. Qandoq oldiga o'zim boraman-da. Tezroq tur! Dadangning oldiga o'zim boraman. So'ridagi nonushtangni tovuq cho'qib ketmasin.

Tursunboyning odeyalni boshiga tortib burkanib olishidan unga onasining gaplari yoqmayotganligini va buyurilgan ishni qilmoqchi emasligini hech qanday verbal vositalarsiz bilib olishimiz mumkin.

g) – O'zing kelyapsanmi? O'g'lingga aytsang bo'lmasmidi? Necha marta aytaman, yuk ko'tarma, deb.

Jannat, xechqisi yo'q, deganday iljaydi.

Jannatning iljayishi ma'nosi matnda aniq yoritilib berilgan, ya'ni, u "xechqisi yo'q" degan ma'noda iljayadi. Bu misolda ma'no har ikkala vosita orqali – ham verbal, ham noverbal vositalar orqali ochib berilgan.

II. Abdulla Qahhorning "Sarob" romani misolida noverbal aloqa vositalar tahlili.

a) Qiz nihoyat uning so'zini yerga tashlamay, eshik tomon yo'naldi va eshikning qabzasidan ushlab Saidiyga qaradi; chap qo'lini po'killab turgan yuragi ustiga qo'yib labini tishladi.

- Kiraymi, a? Ketmay turing...

Qiz bu so'zni o'ylamasdan aytdi.

Asarda qizning labini tishlash imo-ishorasi orqali u bilmasdan noto'g'ri gapirib qo'ygani uchun uyalganligining bir belgisidir. Zero, o'zbek tilida labini tishlash ishorasi yo uyalganlikni bildirish uchun, yoki hayrat ma'nosida ishlatiladi.

b) Qizning vahima bilan o'tmaslangan zehni zalning eshigidan chiqqanidan so'nggina asliga qaytdi: yonida sog'lom, har bir harakatidan kuch-quvvat aks etib turgan bejirim yigit

borardi. Qiz o'ngaysizlanar, xuddi birov ko'rib qolishidan hadiksiraganday atrofga qarar, ammo bu yigitga zarur ishi bor yoki muhim bir joyga boshlab ketayotganday, bir qadam ham orqada qolmas edi. Qiz bir gap bahonasi bilan Saidiyning yuziga bir lahza tikildi -da, negadir qizardi.

Qiz yuzining "qizarishi"ning sababi uning uyalganligidan deb baholashimiz mumkin. Chunki undan olingi gaplarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, u o'zini xuddi uyalgandek his qiladi va Saidiyning yuziga qarashi bilan uyalganidan yuzi qizaradi.

c) – Esingizda bormi, bo'ynimizga jild osib "Urfon" maktabiga qatnagan kunlarimiz?

Ehson ustki labini tishlab, ko'zini yuqoriga ko'tardi. Saidiy eslatmoqchi bo'lgan o'tmish ko'z oldidan o'tdi; u bilan bir partada o'tirib o'rgangan sharqiylari qolug'iga eshilib ketdi:

Turkistonni dog'lari vor,

Na go'zaldi, shimdi og'lor...

Ehsonning "ustki labini tishlab, ko'zini yuqoriga ko'tarishi"dan uning o'tmishni eslashga harakat qilganligi anglab olishimiz mumkin.

d) – O'shanda biz yosh edik, - dedi Saidiy uzoqqa qaraganday ko'zlarini qisib, - ammo bir-birimizning tilimizga tez tushunardik. Endi shunday emas deb qo'rqaman...

Bu misolda Saidiyning "ko'z qisish" sababini ikki xil tushunish mumkin: yo uzoqqa qarash uchun, yoki bo'lgan voqealarni eslash uchun.

e) – Sizda yana bir odat bor, - dedi Saidiy gapini bir necha martaba qaytarilgan asabiy kasalday aftini burishtirib, - siz o'tgan ketgandan so'zlamaysiz. Agar jahonni kezib ming kishining umri yetmaydigan sarguzasht ortitganingizda ham tez unutasiz.

Saidiyning "aftini burishtirishi" orqali uning gapida jiidiyiligini bilib olish mumkin.

f) Keling, qo'ying, avval ayting, - dedi Ehson Saidiyning tizzasiga urib, - nima bo'ldi, javob oldingizmi, qabul qilinibsizmi?

Saidiy keyin aytmoqchi bo'lib ishora qildi va cho'zildi.

Ehsonning Saidiyning tizzasiga urish imo-ishorasini gapirilayotgan mavzuni to'xtatib, Saidiy o'zi haqida gapirishini xohlayotganini anglashimiz mumkin, ya'ni u mavzuni almashtirishni nazarda tutadi.

g) Eshikdan Ehsonning do'sti Pavel Shafrinning tovushi eshildi. U kim bilandir so'zlashib kelar edi. Saidiy xuddi buyurgan ovqati yoqmagan kasalday, aftini burishtirib, boshini yostiqa qo'ydi. Saidiy Shafrinni umuman yomon ko'rardi, xususan hozir ko'rgani toqati yo'q edi.

Saidiy bilan bog'liq yana bir noverbal aloqada shuni ko'rishimiz mumkinki, u Shafrinni yomon ko'rganligi sababli, ayniqsa, hozir uni ko'rishni xohlamaganligi tufayli uni ko'rmaslik uchun aftini burishtiradi va yotib oladi.

h) Shafrindan ilgari yoshgina bir yigit kirdi. Bu ham Ehsonning yaqin do‘sti, Saidiy “badxazm” degan kishilardan biri – Sharif edi. U Ehson bilan so‘rashdi-da, burnini jiyirib, uying u yoq – bu yog‘iga qaradi.

- Xudo haqqi, uying bijib ketibdi... Xech ko‘chaga chiqasanmi o‘zing?

Inson ikki xil holatda burnini jiyirishi mumkin: yo nimadur yoqmaganida, yoki muhitning hidi unga to‘g‘ri kelmasa. Matnni o‘qish davomida Shafringa xonaning hidi to‘g‘ri kelmaganligini va shuning uchun ham u burnini jiyirish ishorasidan foydalanganligining guvohi bo‘lamiz.

III. Pirimqul Qodirovning “Uch ildiz” asari misolida noverbal aloqa vositalari ta hlili.

a) Mahkam hozir uning yana nimadir demoqchi ekanini sezdi, lekin unga ko‘rinishni ham, gapirishni ham istamagani uchun bosh irg‘ab eshikdan chiqdi. Ammo Zokir yetib kelib to‘xtatdi:

- Ha, qizarib ketibsizmi?

Mahkam oftobdan ko‘zini qisib unga qaradi-da, javob o‘rniga qo‘lini yoydi va noiloj kulimsiradi.

“Uch ildiz” asarida olingan bu parchada birdaniga uchta imo-ishorani ko‘rishimiz mumkin. Birinchidan, Mahkamning bosh irg‘ab xonadan chiqib ketishi uning noroziligini bildirsa; ikkinchidan, uning qo‘lini yoyishi va kulib qo‘yishi “ha” degan tasdiq javobini bildiradi. Bu parchada bir qarashda yana bir noverbal aloqa vositasi borga o‘xshab ko‘rinadi, ya‘ni Mahkamning ko‘zini qisishi. Agarda Mahkam “gapni sir saqlash”, “hazillashish” ma‘nolarida ko‘zini qisganida buni birikma noverbal aloqa vositasi deb tushungan bo‘lardik. Lekin, bu misolda ko‘zini qisish oftob nuri natijasida yuzaga chiqadigan oddiy tabiiy hol ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

b) Yana Akbarov hayolida gavdalandi va yana uning “naryog‘idan!” degani qulog‘iga eshilib ketdi. U eshikni taraqlatib yopdi-da, shiddat bilan stol yonidan o‘tib fortochkani ochdi.

Qahramonning eshikni taraqlatib yopishi misolida uning jahli chiqayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

c) Bu yerdan Ochilning yozayotgan narsasi unga ko‘rinardi. Shuning uchun Ochil chap yelkasini burib, yozuvlarni to‘sdi. Mahkam uning she‘r yozayotganini payqab kulimsiradi, lekin po‘pisa qilib so‘radi:

- Yana bir-ikki soat o‘tirmoqchisiz shekilli?

Ochil indamay yozishda davom etdi. Mahkam koykani aylanib o‘tib, uning oldiga keldi.

- Qani, leksiya vaqtida yozilgan she‘r qanaqa bo‘lar ekan, bir ko‘raylik-chi!

- Tegmang, - dedi Ochil qog‘ozlarni kafti bilan bosib.

- Maxfiymi? Ob-bo, qachondan beri?

- Qo'ying, jo'ra, buning hazil qiladigan joyi yo'q, - dedi Ochil jiddiy.

Asardan olingan bu parchada yana bir qancha imo-ishoralarni ko'rishimiz mumkin. Ochilning yelkasini burishi ishorasidan uning qilayotgan ishi maxfiylikini, uni boshqalar ko'rishini xohlamasligini; Mahkamning kulimsirashi unga Ochilning qilayotgan ishi erish tuyilganini, unga hazilomuz munosabatda bo'lganini; Ochilning qog'ozlarni ustiga kaftini qo'yishi orqali suhbatdoshi uning narsasiga tegmasligini, yozayotganlarini sir tutishini xohlayotganligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

d) Zamira unga qiyo boqib beixtiyor tabassum qildi.

Odatda, tabassum qilish imo-ishorasi mamnuniyatni ifodalaydi va xuddi shunday Zamira ham mamnun bo'lganligi tufayli tabassum qilib qo'ydi.

e) Ma'lum bo'lishicha, Zamira boshqalarga rad javobi bergani uchun unga ham yo'q degan ekan. Taklifi yerda qolgan studentlardan biri Zamiraga kinoyali ishora qilib:

- Bu kishi o'zlarini Ochilboyga asrab o'tiribdilar, - degan ekan.

Qahramonning bu xatti-harakati ostida u Zamirani yerga urgani, gapi Zamiraga tegishli ekanligini ochiq-oydin ko'rishimiz mumkin.

Ko'rib turganingizdek, o'zbek tili xilma-xil imo-ishoralarga boy. Ular ayrim joylarda verbal aloqa vositalari bilan birgalikda qo'llanilinsa, ayrim joylarda yolg'iz o'zi ishlatiladi va natijada verbal aloqaga muhtojlik qolmaydi. Ularning o'zi kerakli ma'noni tashish vazifasini o'z bo'yniga oladi. Noverbal aloqa vositalari verbal aloqa vositalari bilan bitta joyda qo'llaniladigan bo'lsa ular ma'noni yanada kuchaytirib, tushunarliroq qilib o'quvchiga yetib borishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurmonov A. O'zbek tilining paralingvistik vositalari. – Andijon., 1980.
2. Saidxonov M. Aloqa-aralashuv va imo-ishoralar. – T., 2008.
3. Abdulla Qahhor. Sarob. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati, 1995.
4. Said Ahmad. Ufq. – T.: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1976.
5. Pirimqul Qodirov. Uch ildiz. – T.: G'ofur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1979.